



<https://doi.org/10.70728/c.series.san.v08.i05.018>

MUSTAQILLIK YILLARIDA OLIY MUSIQA TA‘LIMIDAGI O‘ZGARISHLAR

*Murtazova Sahodat Bo‘riyevna,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
“Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri,
t.f.b. falsafa doktori (PhD), professor*

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekiston oliy musiqa ta‘limining mustaqillik davri tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridan ta‘lim, xususan musiqa ta‘limi tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilganligi, sohaga doir qabul qilingan qaror va farmonlar, musiqa sohasida yuz bergan o‘zgarishlar, erishilgan yutuqlar va boshqa masalalar umumlashtirilgan. Shuningdek, bugungi kunda dunyo xalqlari o‘z milliy madaniyati, ma‘naviyatini o‘rganish, targ‘ib qilish, boy an‘analarini asrab-avaylash va rivojlantirish, ijodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, xalqaro festivallar, ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etish, tadqiqotlar olib borish borasida jiddiy harakatlar olib borayotganligi, bu borada soha rivoji uchun asosan oliy musiqa ta‘limi tizimining alohida o‘rni borligi qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: musiqiy ta‘lim, konservatoriya, mumtoz musiqa, estrada, jaz, an‘ana, milliy ma‘naviyat, sozanda, konkurs, cholg‘u, festival, tadqiqot, qo‘llanma, dastur, teatr, musiqa nazariyasi.

Kirish. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida yoshlarni ma‘naviy yetuk va jismonan sog‘lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, ularni barkamol, intellektual salohiyatli, komil shaxs sifatida shakllantirish maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, keyingi yillarda ham musiqa ta‘limi, musiqa madaniyati sohasidagi ishlar yuqori pog‘onaga ko‘tarilgan holda amalga oshirila boshlandi. 2026 yil 2 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-103 sonli madaniyat, san‘at va adabiyot sohalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni qabul qilindi [13].

Mazkur O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni 2026 yil 1 iyun kuni Prezdiyent tomonidan madaniyat, san‘at va adabiyot xodimlari bilan o‘tkazilgan sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan uchrashuvda ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish, shuningdek, ijodkorlarga munosib shart-sharoitlar

yaratish hamda sohada xususiy sektor ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida qaror teatr, kino, raqs, opera, folklor, estrada, akademik va milliy cholg‘u, tasviriy va amaliy san‘at hamda adabiyot kabi yo‘nalishlarda ijodiy birlashmalar faoliyatini yo‘lga qo‘yishga oid vazifalar belgilangan [13].

Shuningdek, ijodkorlarni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash, ularning xalqaro tanlovlardagi ishtiroki sonini 2027 yilda 20 foizga, g‘oliblar sonini 30 foizga, 2030 yilga qadar ishtirokchilar sonini 5 baravarga, g‘oliblar sonini esa 2 baravarga oshirish, shoir va yozuvchilar tomonidan har yili kamida 50 ta eng sara asarlar yaratilishini, milliy adabiyotning eng yaxshi 10 ta asari xorijiy tillarga tarjia qilinishini ta‘minlash, ijodkorlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularga munosib shart-sharoitlar yaratish, jumladan, har yili 1 ming nafar ijodkorni uy-joy bilan ta‘minlash, 3 ming nafarini bepul davolash kabi masalalarni kiritilganligi sohani yanada rivojlantirishga, ushbu soha vakillari uchun munosib shart-sharoit yaratish kabi ustuvor masalalar ko‘zda tutilgan[13].

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh tashabbusning birinchisi aynan yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san‘atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste‘dodini yuzaga chiqarishga bag‘ishlangan bo‘lib, bu borada mamlakatimizda izchil islohotlar amalga oshirilmoqda [8].

Bugungi kunda dunyo xalqlari o‘z milliy madaniyati, ma‘naviyatini o‘rganish, targ‘ib qilish, boy an‘analarini asrab-avaylash va rivojlantirish, ijodiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, xalqaro festivallar, ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etish, tadqiq etish masalasiga jiddiy e‘tibor berilmoqda.

Shuningdek, hozirgi kunda yoshlarni ma‘naviyatli, yetuk, komil shaxs sifatida shakllantirishda avvalo ta‘lim muassasalarida, o‘qituvchi pedagoglarning professional darajasiga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “yana bir muammoni hal etish o‘ta muhim hisoblanadi: bu – pedagog va professor-o‘qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta‘lim olish, ma‘naviy-ma‘rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur” [1]. Adabiyotlar tahlili. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillaridan boshlangan islohotlar keyingi yillarda yuqori pog‘onaga ko‘tarildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 3 avgust kuni O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvidagi “Adabiyot va san‘at madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusidagi nutqi, 2017 yil 15 avgustdagi “O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2017 yil 8 avgustdagi “O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017 yil 17 noyabrdagi “O‘zbek milliy maqom san‘atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018 yil 26 apreldagi “Baxshichilik va dostonchilik san‘atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-

tadbirlari to‘g‘risida” gi nutq, qaror va farmonlari soha rivoji uchun g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda [8].

Barcha sohalarida bo‘lgani kabi milliy musiqa an‘analari ham qayta tiklanib, musiqa ta‘limi sohasida maxsus islohotlar amalga oshirildi. Xalq og‘zaki musiqa an‘analarini o‘rganish, asrab-avaylash uchun ham keng imkoniyatlar ochildi.

Shuningdek, milliy musiqa merosimiz va uning tarixi, baxshichilik san‘ati maxsus qator fanlar sifatida madaniyat va san‘at ta‘lim tizimiga joriy etila boshlanganligini ta‘kidlash lozim. Milliy musiqamiz nafaqat maxsus bilimgozlarda (madaniyat, san‘at oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, musiqa va san‘at maktablari), balki umumta‘lim maktablarining o‘quv hamda ta‘lim-tarbiya tizimidan ham munosib o‘rin ola boshladi [7; 118]. Shu o‘rinda mumtoz musiqaga doir olimlarimiz tomonidan bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari, chop etilayotgan monografiya, o‘quv-uslubiy qo‘llanma va darsliklar ham e‘tiborga molikdir [7; 118].

O‘zbekiston musiqa san‘atining rivoji mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlanib, bugungi kunga qadar bizgacha yetib kelgan boy ma‘naviy meros bilan boyib bordi. Musiqa madaniyati va ta‘limi mustaqillikning eng yangi davri hayoti respublikamizda amalga oshirilayotgan ma‘naviy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalaridagi tub islohotlar bilan bog‘liqdir. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida oliy musiqa ta‘limi tizimida ham qator o‘zgarishlar yuz berdi. Zamon talablariga mos turli yo‘nalish va janrlarni sifat jihatdan yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo‘yishi soha rivoji uchun alohida ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi - oliy musiqa ta‘limi tizimi faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yilishida asosiy vazifasini bajardi.

O‘zbekiston Davlat konservatoriyasining 6 ta fakultetidagi 24 ta yo‘nalishda musiqa sohasi mutaxassislari tayyorlab kelinmoqda. Konservatoriyada kompozitsiya, musiqashunoslik, xor va opera-simfonik dirijorligi, Yevropa klassik, milliy va estrada yo‘nalishidagi ijrochilik (sozandalik va xonandalik turlari) zamonaviy texnologiya (musiqiy ovoz rejissyorligi) bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi[8;501]. 1992-1993 o‘quv yilida Toshkent Davlat konservatoriyasining Sharq musiqasi fakultetida 144 nafar talaba ta‘lim olib, shundan 47 nafari birinchi kurs edi [8;501].

Konservatoriya mustaqillik yillarida respublikada o‘zining musiqa ta‘limi o‘quv muassasalari hamda musiqa ijodiy jamoalari uchun ilmiy-metodik markaz sifatidagi o‘rniga ega bo‘ldi. Konservatoriya professor-o‘qituvchilari musiqa ta‘limi talabalari va sinflari uchun darslik, o‘quv qo‘llanmalar tayyorlash ishini davom ettirdi. Masalan, 1992-1993 o‘quv yilida Sharq musiqasi fakultetida professor A.Odilov “Ijrochilik san‘ati tarixi” darsligi, san‘at va madaniyat institutlari chang sinflari uchun metodik qo‘llanma, professor M.X.Toirovning nay sinflari uchun o‘quv-metodik qo‘llanmasi, o‘qituvchi A.M.Dadamuhamedovning rubob sinflari uchun darsligi yaratildi[6; 121-ish].

Konservatoriyasi professor-o‘qituvchilari doimiy ravishda qo‘shni davlatlarning nufuzli musiqa o‘quv yurtlari bilan hamkorlik qilib, tinimsiz o‘z malakalarini oshirdi. Masalan, 1991-

1992 o‘quv yilida fortepiano kafedrasidan I. M. Benderskaya Rossiyadagi Gnesinix institutida, N. F. Vasileva Rim-Korsakov nomli Leningrad konservatoriyasida, L. A. Vagapova P. I. Chaykovskiy nomli Moskva konservatoriyasida, L. K. Krilov esa Toshkent madaniyat institutida stajirovkada bo‘ldi [6; 121-ish]. Stajorlar musiqa san’atining turli janrlariga oid qimmatli ma’ruzalarni tinglab, o‘quv yurtlaridagi o‘quv rejalar, dasturlari, metodik qo‘llanmalari bilan tanishdi.

Mazkur konservatoriyada 1996 yil estrada fakultetining ochilishi, jaz san’atini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Fakultetda jaz san’ati ustalaridan Ye.Jivayev, I.Pinxasov, G.Borisov, Yu.To‘rayev, V.Saparov kabi musiqachilar talabalarga bilim berdi. 1998 yil Bahodir Murtazoyev rahbarligida big-bend (kichik jaz jamoasi) tuzildi [4; 33]. Fakultet jamoasi tashabbusi bilan O‘zbekistonda jaz musiqasiga bag‘ishlangan anjumanlar o‘tkazildi. O‘zbekiston Davlat konservatoriyasida Botir Zokirov nomidagi jaz orkestri bilan hamkorlikda konsertlar tashkil etilib, unda jahon musiqa asarlaridan tashqari, o‘zbek milliy kuylari ham jaz yo‘nalishida ijro etilishiga katta e’tibor qaratildi.

2015 yil iyunda O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasida jaz musiqasiga bag‘ishlangan festival o‘tkazildi. Festival doirasida fransuz jaz pianinochisi Per de Betmann tomonidan talabalarga mahorat darslari tashkil etildi. Shuningdek, O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi qoshidagi iqtidorli bolalar musiqa akademik litseyi o‘quvchisi Sanjar Tursunovning xorijlik sozandalar bilan birgalikda fortepianoda jaz asarlari ijro etildi [5]. Estrada-jaz yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar ta’lim olish jarayonida kasbiy ko‘nikmalarni o‘zlashtiribgina qolmay, o‘zlarining musiqiy did va ijro mahoratini yuksaltirib bordi. Jaz, musiqa san’atining eng ommaviy turi sifatida prinsipiiallik va favqulodda izlanuvchanlikni talab etadi.

Konservatoriya professor-o‘qituvchilari musiqa sohasida respublika miqyosida o‘tkazilgan ko‘rik-tanlovlarda hay’at a’zolari va rais sifatida ham qatnashdi. Masalan, 1995 yil 28-30 iyun kunlari Shahrisabz shahrida havaskor maqom ijrochilari jamoalarining ko‘rik-tanlovida konservatoriyaning “An’anaviy ijrochilik” kafedrasida dots.ntl R.Qosimov hakamlar hay’atining raisi sifatida ishtirok etdi. Ushbu kafedraning professor-o‘qituvchilari Sh.Shorahmatov, R.Samadov, I.Toshpo‘latova, S.Azizboyev, M.Ermatov, U.Qodirov, X.Isroilovalar Yunus Rajabiy nomidagi Xalqaro tanlovni tashkil etishda faol ishtirok etdi [6]. Konservatoriya qoshida musiqali teatr studiyasi ham faoliyat yuritdi. Ushbu studiya 1999-2000 o‘quv yilida 44 ta tadbir, 28 ta konsert va spektakllar tashkil etdi.

Konservatoriya rahbariyatiga studiya ijodkorlari chiqishlaridan minnatdorchilik xatlari tez-tez kelib turdi. Masalan, Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi akademik litsey ma’muriyati konservatoriya nomiga 1999 yil 21 dekabrda simfonik va opera musiqa konserti uchun minnatdorchilik xatini yubordi [6].

Natija va Muhokama. Mustaqillik yillarida hozirgi zamon talablaridan kelib chiqib, konservatoriyaning turli kafedralarida yangi-yangi fanlarning o‘qitilishi yo‘lga qo‘yildi. 1999 yildan “Musiqqa pedagogikasi” kafedrasida “Fortepiano ijrochiligining zamonaviy

muammolari” va “XX asr kompozitorlari fortepiano yozuvining texnikasi” kabi fanlar bo‘yicha o‘quv rejalari va dasturi ishlab chiqildi [6].

Shuningdek, respublika viloyatlarida faoliyat olib borayotgan universitet va pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalarida musiqa san‘ati mutaxassislarini tayyorlash borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Buni biz Navoiy davlat pedagogika instituti va Buxoro davlat universiteti hamda Qarshi davlat universiteti musiqa kafedralari misolida ko‘rishimiz mumkin.

Navoiy davlat pedagogika instituti, pedagogika fakulteti tarkibidagi “Musiqa ta‘limi” yo‘nalishi va musiqa kafedrasida 1988 yil “Boshlang‘ich ta‘lim uslubiyoti” fakulteti tarkibida tashkil etildi. 1988-2012 yillarda kafedraga professor O.O.Fayziyev mudirlik qildi [10].

Kafedrada 1 nafar professor, 1 nafar san‘atshunoslik fanlari nomzodi, 5 nafar katta o‘qituvchi, 4 nafar o‘qituvchi faoliyat ko‘rsatib, kafedraning ilmiy salohiyati 18 foizni tashkil etdi. “Musiqa ta‘limi” yo‘nalishida jami 196 nafar talaba, shundan 1 – bosqich 44 nafar, 2 – bosqich 51 nafar, 3 – bosqich 50 nafar, 4 – bosqich 51 nafarni tashkil etdi.

2013 yildan boshlab 5A-111101–Musiqa ta‘limi bo‘yicha magistratura tashkil etildi. Kafedrada O.O.Fayziyev, O.T.Ashurova, O‘.O.Mirzayev, B.N.Umrzoqov, Sh.M.Majidov, Sh.I.Jalilov, S.B.Saidiy, Z.S.Ochilov, O.A.Xayitov, A.Q.Azimov, F.T.Bo‘ronov kabi professor-o‘qituvchilar musiqa fanining turli yo‘nalishlari bo‘yicha talabalarga saboq berishdi.

Kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonunning asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, bugungi oliy ta‘lim tizimi talablariga javob beradigan o‘qitishning yangi zamonaviy texnologiyalari keng joriy etildi. Shu maqsadda professor-o‘qituvchilar tomonidan ko‘plab darslik, o‘quv-metodik qo‘llanmalar ishlab chiqildi. 1991-2013 yillar davomida 12 ta o‘quv qo‘llanmalari 120 dan ortiq ilmiy-uslubiy maqolalar chop etildi.

Kafedra qoshida 2003 yildan buyon “Musiqa nazariyasi” ilmiy to‘garagi yo‘lga qo‘yildi. To‘garak faoliyatida Normurodova Lobar, Muhammadiyev Dadaxon, San‘atova Shoir, Fayziyeva Umida, Rustamov Jasur, Qahhorov Baxtiyor kabi pedagoglar muhim rol o‘ynadi.

O‘zbekistonda musiqa ta‘limini rivojlantirish va yetuk musiqashunoslarni tayyorlashda Qarshi davlat universiteti Musiqa kafedrasining o‘ziga xos o‘rni bor. Bu kafedra 1977 yil tashkil topgan bo‘lib, shu yillar davomida kafedraga dots.nt Sami Aziz o‘g‘li, dots.M.Abdukarimov, R.Primov, M.Murodovlar mudirlik qildi.

Kafedrada hozirgi vaqtda 1 nafar pedagogika fanlari nomzodi, katta o‘qituvchi, 1 nafar dots.nt, 2 ta katta o‘qituvchi, 1 nafar O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, 5 nafar o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatadi. Ilmiy salohiyat - 30%ni tashkil etadi. Kafedrada musiqa o‘qitish metodikasi va maktab repertuari, musiqa tarixi, musiqa nazariyasi, solfedjio, vokal ijrochiligi, an‘anaviy va xalq qo‘shiqchiligi, xor va xorshunoslik, dirijorlik, cholg‘u ijrochiligi va ansambli, musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi, cholg‘u ijrochiligi, cholg‘u ansambli,

musiqa o‘qitishning innovatsion texnologiyalari, cholg‘ushunoslik, xor aranjirovkasi, o‘zbek mumtoz qo‘shiqchiligi, bolalar musiqa adabiyoti kabi fanlar o‘qitildi [11].

Kafedrada R.T.Primov, M.E.Ismoilova, A.N.Rahmonqulov, O.T.Xalilova, Q.Y.Qurbonov, M.Sh.Qurbonova, M.Q.Murodov, S.N.Batasheva, L.Q.Pirnazarov, F.S.Azizov, S.B.Murtozovlar talabalarga dars beradi.

Kafedra TDPU san‘at fakulteti, SamDU, BuxDU, TermizDU musiqa kafedralari bilan doimo ilmiy hamkorlik qilib keldi. Kafedra qoshida “Yosh musiqashunos” to‘garagi faoliyat ko‘rsatib, unga 30 dan ortiq iqtidorli talaba jalb etilgan. Unda talabalar ijodiy, ilmiy izlanishlar olib boradilar.

Kafedraning professor-o‘qituvchilari respublika, viloyat, shahar miqyosida o‘tkazib kelinayotgan “O‘zbekiston vatanim manim”, “O‘zbekistonda estrada san‘ati”, “O‘zbekiston qo‘shiq bayrami” va “Yagonasan, muqaddas Vatan” kabi ko‘rik tanlovlarda o‘z ijodiy ishlari bilan ishtirok etib keldi. Kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan 1-7-sinflar uchun bolalar qo‘shiqlarining elektron to‘plami ishlab chiqildi. Qo‘shiqlarning musiqalari aranjirovka qilinib DVD va CD disklari hamda magnit tasmlarga yozilgan va talabalar amaliyotiga tatbiq etish yo‘lga qo‘yildi.

Musiqa kafedrası qoshida tashkil etilgan “Ziyo sadolari” dastasi mustaqillikning 23 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan “Yagonasan, muqaddas Vatan” ko‘rik-tanlovida muvaffaqiyatli ishtirok etdi va dastlab mintaqaviy, keyin esa respublika bosqichida birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi[11].

Shashmaqom va mumtoz musiqa vatani bo‘lmish Buxoroda, davlat pedagogika institutining (hozirgi BuxDU) boshlang‘ich ta‘lim metodikasi fakulteti qoshida 1962 yilda musiqa kafedrası ochilgan. Kafedraga tajribali o‘qituvchilar, xalq musiqasi bilimdonlari To‘ra Jo‘rayev, Boqijon Ashurov, Mubinjon Azimov, Davron Karimov, Valentina Dashich, Nina Smirnova, Istat Xolova, Lidiya Presnyakovalar faoliyat ko‘rsatdi.

Professor M.H.Mahmudov Buxoro musiqa madaniyati va tarixi, musiqashunoslik, musiqiy merosiga oid tadqiqotlarning yuzaga kelishiga ham munosib hissa qo‘shdi. Kafedra olimlari tomonidan 4 ta monografiya, 1 ta darslik, 10 dan ziyod o‘quv-uslubiy qo‘llanma, 100 ga yaqin ilmiy maqola va tezislarni nashr etildi va tadqiqot ishlari vazirlik grantini qo‘lga kiritdi.

2009 yilda folklorshunos olim, professor O.Safarov, O.Atoev, F.To‘rayevlarning “Buxorcha va mavrigi” taronalari, professor F.To‘rayevning “Buxoro mug‘anniylari”, 2011 yilda “Buxoro Shashmaqomi tarixi” kabi kitoblari nashr etildi.

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Ahmadjon Shukurov, Respublikada xizmat ko‘rsatgan artist, bastakor Orif Atoev, Turkmanistonda xizmat ko‘rsatgan artist Imomqul Yollijev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Qodirqul Jo‘raqulov, O‘zbekiston respublikasida xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi Fazliddin Bo‘ronov, professor Olimjon Fayziyev, fan nomzodlari, dots.ntlar Baxtiyor Mustafoyev, Zebo Rahimova, Bahrom

Madrimov, xushovoz xonandalar Usmon Inoyatov, Usmon Jabborov, Sharif Sharipov, Shuhrat Tillayev, Feruza Asadova kabi sobiq talabalar aynan shu bo‘limda ta‘lim olgan.

Yuqorida zikr etilgan muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritishda fakultet va kafedralarni uzoq yillar boshqarib, musiqa sohasida yetuk kadrlar tayyorlashda o‘zining munosib hissasini qo‘shgan Kamol Xayrullayev, Ismat Shamsiddinov, Shamsiddin Rayhonov, Toshpo‘lat Tursunov, Mahmudjon Raxmatov, Fayzullo To‘rayev, Sanoqul Do‘stov, Sattor Murodov, Axtam Qo‘shayev, Lidiya Presnyakova, Tamara Rajabova, Mardon Do‘stov, Ashraf G‘afurov singari fidoyi ustozlarning xizmati katta bo‘ldi.

Kafedra professor-o‘qituvchilari ta‘lim vazifalaridan kelib chiqqan holda ilmiy izlanishlar olib borish jarayonida talabalarning ilmiy ishlariga rahbarlik qilish, shuningdek, ularning kasbiy malakalarini oshirish hamda respublika va viloyat madaniy-ma‘rifiy tadbirlarida faol ishtirok etishlarini ta‘minlash orqali yoshlarning madaniy saviyasini oshirish, ularda yuksak ma‘naviyatni shakllantirish ishiga o‘z hissalarini qo‘shib keldi. Jumladan, dots.nt B.X.Madrimov ilmiy rahbarligida Salimova Hulkar - talabalar uchun mo‘ljallangan grant tanlovi g‘olibi, shuningdek, Zulfiya mukofoti viloyat bosqichi 1-o‘rin sohibasi, respublika bosqichi qatnashchisi; Yo‘ldosheva Iroda “Yagonasan, muqaddas Vatan” ko‘rik-tanlovining viloyat bosqichida 1-o‘rin sohibasi, respublika bosqichida esa 2-o‘ringa sazovor bo‘ldi, shuningdek, Komilova Gulrux, Asadova Feruza, Samiyeva Mehriniso kabi talabalar viloyat va respublika miqyosidagi turli ko‘rik-tanlovlarda faol ishtirok etgan. 4-bosqich talabasi Samiyeva Mehriniso 2012 yilda “Zulfiya” nomidagi hamda “Nihol” davlat mukofotlari tanlovining viloyat bosqichida g‘oliblikka erishdi. 3- bosqich talabasi Feruza Rahmatova 2014 yil may oyida “Musiqa nazariyasi” fani bo‘yicha Samarqandda bo‘lib o‘tgan respublika fan olimpiadasida faxrli 3-o‘rinni egalladi[12].

Xulosa. Xullas, mustaqillikning dastlabki yillaridan milliy o‘zligimiz, ma‘naviy merosimiz, an‘anaviy qadriyatlarimizga, o‘zbek milliy musiqiy merosimiz va musiqa ta‘limi va kadrlar tayyorlashga bo‘lgan munosabat sifat darajasiga ko‘tarildi. Oliy musiqa ta‘lim tizimida qator yutuqlar qo‘lga kiritildi. Keyingi yillarda boy ma‘naviy merosimizni xalqaro miqyosda jahonga tanitish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada oliy musiqa ta‘lim tizimi professor-o‘qituvchilari, iqtidorli kadrlar tayyorlashga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T., “O‘zbekiston”, 2017, – 45 B.
- 2.Akbarov I. Musiqa lug‘ati.- Toshkent, “O‘qituvchi”, 1997.-B. 161.
- 3.Rizayev O. San‘at instituti yangi qiyofada.//Teatr, 2005, №4. -B.2-3.
- 4.Sedix T. O‘zbekistonda jaz san‘ati.//San‘at, 2008, №2, -B. 33.
- 5.Saydullayeva Z. Musiqa festivali.// Turkiston, 2015 yil, 10 iyun.

6. Toshkent shahar Davlat arxivi, 363-jamg‘arma, 2-ro‘yxat, 264-ish (6-7-varaqlar), 121-ish (7-8-varaqlar).
7. O‘zbekiston san’ati (1991-2000 yillar). Toshkent, “Sharq”, -B. 118.
8. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 10-jild. -Toshkent, 2005. -B.501.
9. www.uza.uz
10. http://nspi.uz/new_s/musiqaf.html
11. <http://qarshidu.uz/index.php/uz/2013-09-24-08-39-46/pedagogika/musiqa-ta'limi-kafedrasi>
12. <http://www.buxdu.uz/index.php/ru/struktura/fakulteti/pedagogicheskiy-fakultet/411-musiqiy-ta'lim-yo'nalishi-kafedrasi>.
13. <https://president.uz/uz/lists/view/9268>